

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

RAQAMLI IQTISODIYOT FAKULTETI

INNOVATSION TA‘LIM KAFEDRASI

Qo‘lyozma huquqida
UDK:331:331.5 (575.1)

NURMUHAMMADOVA DILAFRUZ YANGIBOY QIZI

**MODUL-KREDIT TA‘LIM TIZIMIDA MUSTAQIL TA‘LIMNI
RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK MEXANIZIMLARI**

**70112401 – Professional ta‘lim nazariyasi va metodikasi (iqtisodiyot)
mutaxassisligi bo‘yicha**

magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar:

P.f.n., dots. N.X.Lutfullaeva


TOSHKENT – 2023

Magistrlik dissertatsiya ishi "Innovatsion ta'lim" kafedrasida dastlabki himoyadan o'tgan.

35 -sonli bayonnoma "28" 09 2023 yil.

Kafedra mudiri:

prof. M.F.Xakimova




imzo

29.05.2023

sana

Ilmiy rahbar:

dots. N.X.Lutfullayeva




imzo

29.05.2023

sana

Talaba:

D.Y.Nurmuxammadova



imzo

29.05.2023.

sana

Dissertatsiya Raqamli iqtisodiyot fakultetida 2023 yil
" 29 " may № 6 raqami bilan ro'yxatga olingan.

ANNOTATSIYA

Ushbu dissertatsiya ishida Ozbekistonda o'quv jarayoniga kredit-modul tizimining joriy etilishi mohiyati, modul - kredit talim jarayonini tashkil etishdagi pedagogik va nazariyalar ustuvorligi, o'quv faoiyatiga ta'sir etuvchi psixologik va pedagogik omillar hamda ta'lim jarayonida mustaqil o'quv faoliyatini tashkil etishning psixologik mexanizmlarini tadqiq etishning maqsad va vazifalari, modeli, uning tarkibiy qismlari tahlil etildi va echimi so'ralgan masala bo'yicha ilmiy-amaliy taklif ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: *mustaqil bilim, mustaqil o'qish, ta'lim, didaktik jarayon, o'zlashtirish, didaktik vositalar, mustaqil fikrlash, sifat, samardorlik, Bolon'ya jarayoni.*

SUMMARY

In this dissertation work, the essence of the introduction of the credit-module system into the educational process in Uzbekistan, the priority of pedagogical and theories in the organization of the modular - credit training process, psychological and pedagogical factors affecting the educational FAO and the goals and objectives of research of the psychological mechanisms of organizing independent educational activities in the educational process, a model,

Key words: *independent knowledge, independent reading, education, didactic process, mastering, didactic means, independent thinking, quality, efficienc, Bologna process.*

MUNDARIJA

	Annotatsiya.....	3
	Mundarija.....	4
	Keltirilgan jadvallar ro'yxati.....	6
	Keltirilgan rasmlar ro'yxati.....	6
	Keltirilgan qisqartmalar.....	6
I BOB.	KIRISH.....	7
1.1.	Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi.....	9
1.2.	Tadqiqot maqsadi va vazifalari.....	11
1.3.	Tadqiqotning asosiy muammolari va savollari	11
1.4.	Tadqiqot ob'ekti va predmeti.....	12
1.5.	Tadqiqot natijalarining ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyati.....	12
1.6.	Dissertatsiya tarkibining qisqacha tavsifi.....	13
II BOB.	ADABIYOTLAR SHARHI.....	14
2.1.	Kirish.....	14
2.2.	Mavzuga oid ilmiy-nazariy qarashlar sharhi.....	15
2.3.	Mavzuga oid mahalliy me'yoriy-huquqiy hujjatlar sharhi.....	50
2.4.	Xulosa.....	53
III BOB.	METODOLOGIYA.....	55
3.1.	Tadqiqot dizayni.....	55
3.2.	Ma'lumotlarni to'plash jarayoni.....	55
3.3.	Tahlil uchun qo'llaniladigan usullar.....	58
3.4.	Tadqiqotni o'tkazish uchun zarur sharoitlar.....	61
3.5.	Tadqiqot jarayonida kutilayotgan muammolar va ularning echimi.....	61
3.6.	Tadqiqotdan kutilayotgan ilmiy va amaliy natijalar.....	62
IV BOB.	TAHLIL VA NATIJALAR.....	63
4.1.	Talabalarining mustaqil ta'limni bajarishiga ta'sir etuvchi omillar va ular tahlili.....	63
4.2.	Talabalarining mustaqil ta'limni baholash darajalari va ular tahlili.....	65
4.3.	Talabalarining mustaqil ta'limni rivojlantirishning psixologik mexanizmlari.....	68
4.4.	Modul-kredit ta'lim tizimida mustaqil ta'limni rivojlantirishning psixologik mexanizmlarini organish bo'yicha tahlillardan olingan natijalar sharhi.....	74

V BOB.	XULOSA.....	75
5.1.	Modul-kredit ta'lim tizimida mustaqil ta'limni rivojlantirishning psixologik mexanizimlarini organish bo'yicha natijalarning qisqacha ifodasi.....	75
5.2.	Modul-kredit ta'lim tizimida mustaqil ta'limni rivojlantirishning psixologik mexanizimlarini organish bo'yicha asosiy taklif va tavsiyalari.....	76
5.3.	Tadqiqot cheklovlari va kelgusi tadqiqotlar uchun takliflar.....	77
	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	79
	ILOVALAR	

I BOB. KIRISH

Bugungi kunda oliy ta'lim sohasida katta o'zgarishlar olib borilmoqda shu jumladan hukumatimiz rahbari tomonidan Shavkat Mirziyoyev 8-oktabr kuni imzolangan "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmonda "respublikadagi kamida 10 ta oliy ta'lim muassasasini xalqaro e'tirof etilgan tashkilotlar (Quacquarelli Symonds World University Rankings, Times Nigher Education yoki Academic Ranking of World Universities) reytingining birinchi 1 000 ta o'rindagi oliy ta'lim muassasalari ro'yxatiga kiritish va oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o'tkazish" belgilab berilgandi. Shuningdek, 2030-yilga qadar respublikadagi barcha oliy ta'lim muassasasi (OTM)ning 85 foizi, jumladan, 2020/2021-o'quv yilining o'zida 33 ta oliy ta'lim dargohini kredit-modul tizimiga o'tkazish ko'rsatib o'tilgan.

Ma'lumki, kredit-modul tizimi, ta'limni tashkil etish jarayoni bo'lib, o'qitishning modul texnologiyalari jamlamasi va kredit o'lchovi asosida baholash modeli hisoblanadi. Uni bir butunlikda olib borish serqirra hamda murakkab tizimli jarayondir. Kredit-modul tamoyilida ikkita asosiy masalaga ahamiyat beriladi: talabalarning mustaqil ishlashini ta'minlash; talabalar bilimni reyting asosida baholash.

Kredit-modul tizimining asosiy vazifalari sifatida quyidagilar e'tirof etiladi:

- o'quv jarayonlarini modul asosida tashkil qilish;
- bitta fan, kurs (kredit)ning qiymatini aniqlash;
- talabalar bilimni reyting ball asosida baholash;
- talabalarga o'zlarining o'quv rejalarini individual tarzda tuzishlariga imkon yaratish;
- ta'lim jarayonida mustaqil ta'lim olishning ulushini oshirish;
- ta'lim dasturlarining qulayligi va mehnat bozorida mutaxassisga qo'yilgan talabdan kelib chiqib o'zgartirish mumkinligi.

Yuqoridagilar dars mashg'ulotlarini nafaqat o'qitishni innovatsion ta'lim texnologiyalari asosida olib borish, balki talabadan mustaqil o'qib-o'rganish,